XAN DAVRIDA XITOYNING MARKAZIY OSIYO XALQLARI BILAN ELCHILIK ALOQALARINING O‘RNATILISHI

Qambarliyeva Moxigul Murotali qizi
Tarix yo‘nalishi 1-kurs magistranti
qambaraliyevamohigul@gmail.com.
Karimova Natalya Ermanovna
Tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Xitoyning tashqi siyosiy qarashlari va diplomatik tizimi tahlil qilinadi. Xitoy hukmdorlarining “Osmon tagi” (Tyanshya), “Osmon o‘g‘li” va “markaziy davlat” (Chjungguo) kabi g‘oyaviy-falsafiy tushunchalarga asoslangan siyosati yoritilib, uning atrofdagi davlatlar bilan munosabatlariga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, Chjan Chyan safarlari asosida Markaziy Osiyo davlatlari – Davan, Usun, Qang‘, Da Yuechji, Yancai va boshqalar haqidagi qadimgi Xitoy manbalarida keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Maqolada ushbu davlatlarning geografik joylashuvi, iqtisodiy hayoti va siyosiy tuzilishi ham yoritilib, Xitoy–Markaziy Osiyo diplomatik va savdo aloqalarining shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Xitoy, Tyanshya, Chjungguo, Osmon o‘g‘li, Chjan Chyan, Markaziy Osiyo, Davan, Qang‘, Usun, Da Yuechji, Yancai, Xan sulolasi, Kushon davlati, diplomatiya, tashqi siyosat.

Abstract: This article examines the foreign policy perspectives and diplomatic system of ancient China. It explores the policies of Chinese rulers based on ideological and philosophical concepts such as “All Under Heaven” (Tianxia), the “Son of Heaven,” and the “Central State” (Zhongguo), highlighting their influence on China’s relations with neighbouring states. Furthermore, based on Zhang Qian’s journeys, the article analyses information found in ancient Chinese sources concerning Central Asian states, including Dayuan, Wusun, Kangju, Da Yuezhi, Yancai, and others. The geographical location, economic life, and political structure of these states are also examined, revealing the

process through which diplomatic and trade relations between China and Central Asia developed.

Keywords: Ancient China, Tianxia, Zhongguo, Son of Heaven, Zhang Qian, Central Asia, Dayuan, Kangju, Wusun, Da Yuezhi, Yancai, Han Dynasty, Kushan Empire, diplomacy, foreign policy.

Kirish

Xan sulolasi davrida Xitoyning Markaziy Osiyo xalqlari bilan elchilik aloqalari miloddan avvalgi II asrda faol rivojlana boshladi. Bu jarayonda Chjan Chyanning miloddan avvalgi 138-yilda g‘arbiy hududlarga uyushtirgan safari muhim ahamiyat kasb etdi. Uning safarlari natijasida Davan, Usun, Qang‘ va Da Yuechji kabi davlatlar haqida muhim ma’lumotlar to‘plandi. Ushbu elchilik aloqalari Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik hamda savdo munosabatlarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Adabiyotlar tahlili

Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda Buyuk Ipak Yo‘li aloqalari katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar turli davrlar va olimlar nuqtai nazarini aks ettiradi. O‘. Mavlonov (2016) monografiyasida Markaziy Osiyoning qadimiy yo‘llarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Muallif yo‘llarning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlab, mintaqaning tarixiy rivojini keng yoritadi.

X. Azimov dissertatsiyasi qadimgi Xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo hududlari va xalqlari haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish uchun muhim tadqiqot hisoblanadi. Undan Davan, Qang‘, Usun va boshqa siyosiy tuzilmalar bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilishda,

Li Qiancheng tomonidan tarjima qilingan asarda qadimgi Xitoy sulolalari tarixiy manbalarida G‘arbiy o‘lkalar haqida keltirilgan ma’lumotlarga izoh beradi. U Xitoy manbalaridagi tarixiy-geografik atamalar, Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari, shuningdek, ularning siyosiy hamda iqtisodiy hayotiga oid xabarlarni qiyosiy o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

A. Xo‘jayev Mazkur asar Buyuk ipak yo‘li doirasidagi tarixiy aloqalar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun foydali adabiyotdir. Undan qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llari, diplomatik aloqalar hamda madaniy almashinuv jarayonlarini tarixiy nuqtayi nazardan yoritishda foydalanish mumkin.

Ushbu adabiyotlar bir-birini to‘ldiradi: Azimovning tadqiqotlari Xitoy–Markaziy Osiyo munosabatlari va Kushon davri aloqalariga, Yu Taishan va Li Qiancheng asari qadimgi Xitoy yozma manbalarini sharhlashga, Xo‘jayevning kitobi esa Buyuk ipak yo‘li doirasidagi munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi. Ularni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish Xan sulolasi davridan boshlab Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik va savdo aloqalari rivojini kengroq yoritish imkonini beradi.

Asosiy qism

Qadimgi Xitoy hukmdorlari tashqi siyosatini o‘ziga xos g‘oyaviy-falsafiy qarashlar asosida olib borgan. Ular yer yuzini “Osmon tagi” (Tyanshya), o‘z davlatini esa uning markazi (Chjungguo) deb bilib, hukmdorni “Osmon o‘g‘li” sifatida ilohiy vakil darajasida ko‘rgan. Shu sababli boshqa davlatlar bilan aloqalar teng asosda emas, balki ularni markazga bo‘ysundirish va itoatkorlik tizimiga kiritish shaklida olib borilgan.

Xitoy hukmdorlari atrofdagi mamlakatlarni “markaziy davlat” va “tashqi davlatlar”ga ajratib, diplomatik aloqalarni o‘z manfaatlariga mos ravishda yo‘lga qo‘ygan. Elchilar yuborishdan asosiy maqsad – uzoq va yaqin davlatlar haqida ma’lumot to‘plash, ularning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganish, savdo yo‘llarini nazorat qilish hamda ularni Xitoyga qaram yoki itoatkor holatga keltirishdan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga, sovg‘a-salomlar orqali boshqa davlat hukmdorlarini o‘ziga moyil qilish va ularni “o‘lpon keltiruvchi” davlatlar sifatida shakllantirish muhim vazifa hisoblangan.

Xitoy diplomatiyasida yana bir muhim jihat – boshqa xalqlarni bir-biriga qarshi qo‘yish orqali boshqarish (“yi yi chji yi”) siyosati bo‘lib, bu orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri urushsiz ustunlikka erishishga intilganlar. Shuningdek, elchilar yuborish orqali tashqi bozorlarga chiqish, savdo aloqalarini kengaytirish va xalqaro yo‘llarda nazoratni kuchaytirish ham ko‘zlangan.

Umuman olganda, qadimgi Xitoyning elchi yuborish siyosati faqat diplomatik aloqa o‘rnatish emas, balki siyosiy ustunlikni ta’minlash, iqtisodiy manfaatlarni kengaytirish va atrofdagi davlatlarni o‘z ta’sir doirasiga kiritishga qaratilgan edi. Xitoylik elchi Chjan Chyan Markaziy Osiyoga safaridan (mil.av. 139- 127) so‘ng Xan saroyida yozilgan manbalarda “qadimgi Markaziy Osiyo xaritasi” quyidagicha tuziladi. O‘sha davrda Markaziy Osiyoda bir qator yirik siyosiy tuzilmalar mavjud bo‘lgan. Jumladan, O‘zbekiston hududidagi Farg‘ona vodiysida Buyuk Farg‘ona (Parkana, qadimgi Dayuan / Davan) davlati joylashgan edi. Qirg‘izistonning shimolidagi Issiqko‘l atrofi, Qozog‘istonning janubi-sharqidagi Ili vodiysi hamda Shinjyang Uyg‘ur muxtor o‘lkasining shimoli-g‘arbiy qismida Usun (Wu-sun) davlati mavjud bo‘lgan. O‘zbekistonning janubiy hududlari hamda Afg‘onistonning markaziy va shimoliy qismlarida esa Da Yuezhi (Yuechji) davlati hukmronlik qilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston va Qozog‘istonning janubiy hududlarida Qang‘ (Kangju) davlati joylashgan edi. Eronning shimoli-sharqi, Turkmanistonning janubiy va janubi-g‘arbiy qismi hamda Pokistonning g‘arbiy hududlarida Parfiya (Ansi) davlati mavjud bo‘lgan. Amudaryoning quyi oqimida Xorazm, shuningdek Dayyik (Dahae), Sajat (Sushie) va Yiamsat (Aorsi, Yantsay) kabi siyosiy birliklar Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘ida joylashgan edi.

Sharqiy Turkistonning shimoli-sharqi, hozirgi Xitoyning shimoliy hududlari va Mo‘g‘ulistonning janubiy qismida Hunlar (Xiongnu) imperiyasi hukmronlik qilgan. Shuningdek, Taklamakon cho‘lining shimoliy va janubiy qismlarida yigirmaga yaqin katta-kichik shahar-davlatlar mavjud bo‘lgan (Azimov.X 2013. 69-89-b).

Chjan Chyan o‘zining G‘arbga qilgan birinchi safaridan so‘ng imperator U-Di ga batafsil hisobot taqdim etgan bo‘lib, unda asosan Pomir tog‘laridan g‘arbda joylashgan hududlar haqida ma’lumotlar jamlangan edi. Bu hisobot uning safar maqsadi va o‘sha davrdagi tarixiy vaziyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsan Davan, Qang‘, Da yuechji va Daxia davlatlarida bo‘lgan, shuningdek Usun, Yancai, Ansi, Tiaozhi, Lixuan va Shendu kabi davlatlar haqida ham eshitgan ma’lumotlarini bayon etgan (Хўжаев А. 2007. б.107).

Chjan Chyan keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, G‘arbiy hududlardagi davlatlar turmush tarziga qarab ikki asosiy guruhga bo‘lingan: ko‘chmanchi va o‘troq davlatlar. Qang‘, Da yuechji va Uusun kabi davlatlar ko‘chmanchi hayot kechirgan bo‘lsa, Davan, Daxia, Ansi, Tiaozhi, Lixuan va Shendu aholisi o‘troq bo‘lib, asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Masalan, Davan aholisi yerga joylashib yashagan, guruch va bug‘doy yetishtirgan, uzumdan vino tayyorlagan hamda mashhur “qon terlaydigan” otlari bilan tanilgan. Bu hududda 70 dan ortiq shahar mavjud bo‘lib, aholisi bir necha yuz ming kishini tashkil etgan.

Geografik jihatdan Uusun davlati Dayuan ning shimoli-sharqida taxminan 2000 li masofada joylashgan bo‘lib, ko‘chmanchi hayot tarzini olib borgan va Xiongnu ga o‘xshash turmush kechirgan. Ularning o‘n minglab mohir kamonchilari mavjud bo‘lib, dastlab Xiongnu ga qaram bo‘lgan, keyinchalik kuchayib, nisbatan mustaqil siyosat yurita boshlagan. Qang‘ esa Davanning shimoli-g‘arbida joylashgan bo‘lib, u ham ko‘chmanchi davlat sifatida Yuechji ga o‘xshash hayot tarziga ega edi. Ularning 80–90 ming atrofida qurollangan kamonchilari bo‘lgan va siyosiy jihatdan janubda Yuechji, sharqda esa Xiongnu ta’sirida qolgan.

Yancai davlati Qang‘ning shimoli-g‘arbida, taxminan 2000 li masofada joylashgan bo‘lib, Orol dengizi atrofida yashagan ko‘chmanchi qabilalarni o‘z ichiga olgan. Ularning 100 mingdan ortiq jangchilari bo‘lib, ular katta suv havzasi yaqinida istiqomat qilgan.

Da Yuechji Davan davlatidan taxminan ikki-uch ming li g‘arbda joylashgan edi. Ular Gui (Amudaryo) daryosining shimolida yashagan, janubida Daxia, g‘arbida Ansi (Parfiya), shimolida esa Qang‘ joylashgan edi. Bu yer ko‘chmanchi hayot tarzi hukm surgan hudud bo‘lib, aholisi chorva bilan birga ko‘chib yurardi va Xiongnu bilan o‘xshash turmush tarziga ega edi. Ularning 100 mingdan ortiq jangovar kamonchilari bo‘lgan.

Milodiy I asr, ya’ni 26–36-yillarda Kushon davlati tashkil topgach, Xitoy manbalarida uning nomi ko‘pincha Yuechji, Da Yuechji, hamda Yuechji guo (Yuechji davlati, ya’ni o‘sha davrda ba’zi manbalarda toharlar davlati sifatida ham qayd etilgan) shaklida tilga olinadi (Li Qiancheng. 2014. P. 50-61).

Xitoyda hukmronlik qilgan Sharqiy Xan (mil. 25–220) sulolasi davridan boshlab Kushon imperiyasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar yanada faollashdi. Bu imperiyaning sharqqa tomon kengayishi Sharqiy Xan davlatining (mil. 25–130 yillar oralig‘ida) Taklamakon cho‘lining janubiy, shimoliy va g‘arbiy qismlaridagi qadimgi shahar-davlatlar orqali o‘tgan savdo yo‘llarini qayta nazorat qilish manfaatlari bilan to‘qnash keldi.

Umuman olganda, Chjang Chyanning ushbu hisobotlari G‘arbiy hududlar haqidagi ilk tizimli va muhim ma’lumotlar manbai bo‘lib, u yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, siyosiy tuzilishi va geografik joylashuvi haqida aniq tasavvur hosil qilishga xizmat qilgan (Азимов Х. 2023. Б 106).

Markaziy Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlari eng qadimgi davrlardan boshlab qo‘shni xalqlar bilan uzluksiz madaniy aloqalarda bo‘lib kelgan. Bu jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli sohalaridagi hamkorlik, texnologik yutuqlar almashinuvi, savdo va elchilik munosabatlari, hunarmandchilik, me’morchilik, haykaltaroshlik va tasviriy san’at rivoji orqali namoyon bo‘lgan. Shuningdek, diniy-falsafiy qarashlar, axloqiy me’yorlar, ilm-fan yutuqlari hamda yozuv va numizmatika kabi sohalardagi yangiliklar keng tarqalgan. Bu jarayonda qadimgi yo‘llar, ayniqsa Buyuk Ipak yo‘li alohida ahamiyat kasb etgan. Savdo karvonlari tarkibida hunarmandlar, olimlar, shoirlar va musiqachilar ham bo‘lib, ular madaniy almashinuvni yanada faollashtirgan (Мавлонов Ў. М. 2016. 361-б).

Xulosa

Qadimgi Xitoyning tashqi siyosati markazlashgan imperiya g‘oyasi va konfutsiyona dunyoqarashga asoslangan bo‘lib, boshqa davlatlarni o‘z ta’sir doirasiga kiritishga qaratilgan edi. Chjan Chyan safarlari natijasida Xitoy Markaziy Osiyo haqida keng va tizimli ma’lumotlarga ega bo‘ldi. Bu ma’lumotlar keyinchalik Xan sulolasining diplomatik va savdo siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Markaziy Osiyodagi Davan, Qang‘, Usun va Da Yuechji kabi davlatlar Xitoy bilan faol aloqalar o‘rnatib, Buyuk Ipak yo‘li rivojlanishiga asos yaratdi. Umuman olganda, ushbu jarayonlar Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ilk keng ko‘lamli integratsiyaning shakllanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Азимов Х. Кушон империяси ва қадимги Хитой муносабатларига оид маълумотлар // *Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklari manbashunosligi* ilmiy anjumani materiallari // – Toshkent, 2023. B. 106-109.

2. Азимов X. Qadimgi davr Markaziy Osiyo va Xitoy munosabatlari (Xitoy manbalari ,misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. B. 154.

3. A Concise Commentary on Memoirs on the Western Regions in the Official Histories of the Western and Eastern Han, Wei, Jin, and Southern and Northern Dynasties / translate by Li Qiancheng; history texts translate by Yu Taishan. Beijing. 2014. P. 906.

4. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент, 2007. – 280 б.

5. Мавлонов, Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Монография. – Тошкент: Фан, 2016. Б. 457.